

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiyaga
qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida
2024-yil 12 oylik natijalari bo‘yicha
UMUMIY HISOBOT**

**I. Iqtisodiyot va moliya vazirligida Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar
dasturi bajarilgani to‘g‘risida umumiy axborot.**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrdagi “Yangi O‘zbekiston ma’muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-269-son va 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»”gi PF-14-son Farmonlariga muvofiq 2023-yil 1-yanvardan Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda Moliya vazirligi negizida Iqtisodiyot va moliya vazirligi (Vazirlik) tashkil etilib, Vazirlik tizimi xodimlarining jami umumiy cheklangan soni tasdiqlangan.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining shtat birliklari sonini tartibga solishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi PF-165-son Farmoni bilan Iqtisodiyot va moliya vazirligining shtat birliklari soni muvofiqlashtirildi.

Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 9-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparatida boshqaruv ishlarini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 23-70-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi to‘g‘risida vaqtinchalik nizom” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyasiga muvofiq “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risida namunaviy nizom” (ro‘yxat raqami 3319; 08.09.2021y.) talablari asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-dekabrdagi 23-237-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi to‘g‘risida vaqtinchalik nizom” yangi tahrirda tasdiqlandi.

Hisobot davrida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkil etilgan boshqaruv tizimi va mexanizmlar “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligi “CERT International” tashkiloti tomonidan tashqi auditdan o‘tkazilib, ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini qo‘lga kiritildi.

2024-yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlari va "Yo'l xaritalari" asosida vazirlikka yuklatilgan barcha vazifalar yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, belgilangan muddatlarda amalga oshirib kelindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan tizimli vazifalar qatorida korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar asosida Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta'sirchan mexanizmlari yaratildi, yo'l qo'yilgan korrupsiyaviy holatlar, shuningdek, o'zi rahbarlik qilayotgan sohaga ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli ishlatish uchun shaxsiy javobgarlik belgilandi (Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 05.01.2023y. 1-bayoni).

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-noyabrda Oliy Majlis Senatining 1 - yig'ilishidagi nutqida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlarni kelgusida yanada takomillashtirish, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirish, yosh avlod ongiga qonunga hurmat, to'g'rilik va halol mehnat tushunchalarini singdirish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi ta'kidlangan bo'lib, bu boradagi ishlarni yanada samarali tashkil etish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan kelgusidagi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosini ta'minlash bo'yicha nazorat reja ishlab chiqilib, nazoratga olindi hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lumot taqdim etib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Davlat dasturlarida belgilangan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar doirasida quyidagilar Vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirildi, xususan:

davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi ([10.10.2013-yildagi 198-sonli buyruq, https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2;](https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2)

bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar va vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalardagi barcha bo'sh ish o'rinlariga to'g'ridan-to'g'ri havola davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlari (vacancy.argos.uz/vacanciyes/vacancy-list?organization=3000).

Shuningdek, byurokratik to'siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirish maqsadida kadrlar bilan ishlash yo'nalishidagi faoliyatini hrm.argos.uz elektron bazasi orqali amalga oshirish joriy qilinib, ishga qabul qilish, hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirish hamda inson resurslarini boshqarishga oid boshqa

raqamlashtirish faoliyati ushbu elektron platforma orqali amalga oshirilmoqda (29.09.2023y. 193-sht sonli buyruq).

Davlat budjeti jarayonining shaffofligini oshirish hamda davlat budjeti xarajatlarning manzilli va maqsadli sarflanishini ta'minlash borasida ma'lumotlarni ochiq budjet (openbudget.uz) axborot portalida doimiy tarzda e'lon qilib borish amaliyoti yo'lga qo'yilgan.

Bundan tashqari, Iqtisodiyot va moliya vazirligi **imv.uz** veb saytiga davlat budjeti parametrlari, daromadlari va xarajatlari, mahalliy budjetlar, vazirliklar va idoralarning budjet ijrosi va indikator ko'rsatkichlari, davlat qarzi hamda davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining ijrosi to'g'risidagi **hisobotlar** joylashtirib borilmoqda.

Bundan tashqari, davlat budjeti hamda davlat maqsadli jamg'armalari xarajatlarning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlar ochiq ma'lumotlar portalida (opendata.gov.uz) ham joylashtirilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo'yicha yo'lga qo'yish maqsadida mazkur soha bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beruvchi quyidagi asosiy ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi:

1. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Siyosati (85-son buyruq, 31.05.2023-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

2. Odob-axloq qoidalari (111-son buyruq, 22.06.2023-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

3. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 1-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

4. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 2-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

5. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 3-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

6. Korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qibga olmaslik kafolati (85-son buyruq, 31.05.2023-yil, 5-bob, 32-39 bandlar, (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>);

7. Yuzaga kelgan salbiy holatlar va favqulodda hodisalar haqidagi axborotlarni vazirlikka taqdim etish tartibi (84-son buyruq, 31.05.2023-yil);

8. Xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 4-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

9. Kontragentlarni tekshirishga oid Yo'riqnoma (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 5-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

10. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-son buyruq, 11.07.2023-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

11. Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 6-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

12. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish Reglamenti (129-son buyruq, 10.07.2023-yil 7-ilova); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

13. Xizmat tekshiruvlari va o'rganishlarni o'tkazishni tashkil etish to'g'risidagi nizomlar (92-son buyruq, 06.06.2023-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

14. Davlat xaridlari jarayonlarini tashkil etish tartibi (198-son buyruq, 10.10.2023-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

15. Xodimlarning chet elga chiqish jarayonida korrupsiya va boshqa huquqbuzarlik holatlariga yo'l qolmasligi yuzasidan profilaktik choralar (buyruq 78, 29.05.2023-yil). (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>)

Shuningdek, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyasiga asosan: "Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti" (23-237-son buyruq 1-ilovasi 18.12.2024-yil) **yangi tahrirda** tasdiqlandi (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>) (Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi qarori bo'yicha (ro'yxat raqami 3383-son 31.08.2022-yil));

Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom (23-237-sonli buyruq 3-ilovasi 18.12.2024-yil) **tasdiqlandi** (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>) (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 829-son qarori bo'yicha).

Bundan tashqari, quyidagi ichki idoraviy hujjatlar yangi tahrirda qabul qilindi: Odob-axloq qoidalari (23-204-sonli buyruq 05.11.2024-yil); (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>) (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrda "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qarori bo'yicha).

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom (237-sonli buyruq 2-ilovasi 18.12.2024-yil) (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>) (O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuniga asosan).

Shuningdek, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni tatbiq etiladigan Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi tashkilot va muassasalar ro'yxati (23-231-son buyruq 14.12.2024-yil) tasdiqlandi; (<https://www.imv.uz/static/ichki-idoraviy-hujjatlar-2>) ("Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi yig'ilishining 94-I-son bayoni bo'yicha).

III. Xavf-xatarlarni baholash

Iqtisodiyot va moliya vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq amalga oshiriladigan 893 ta funksiyalari 2024-yilning

25-fevralidan 11-martiga qadar korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo'yicha baholashdan o'tkazildi.

O'tkazilgan tadbir davomida tarkibiy tarmoqlar faoliyatida 2024-yil uchun korrupsiyaviy xavf-xatarlar 3 ta darajaga (*yuqori, o'rta, past*) ajratilib baholandi. Natijada, yuqori darajadagi xavfi mavjud funksiyalar mavjud emas, o'rta darajadagi 7 ta, past darajadagi 886 ta funksiyalar baholashdan o'tkazildi, shuningdek xavflarni minimallashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi va quyidagi ishlar amalga oshirildi.

Jumladan, "o'rta" darajadagi korrupsiyaviy xavf-xatari mavjud bo'lgan funksiyalar bo'yicha lavozimlar va ushbu lavozimlardagi mas'ul xodimlar ro'yxati shakllantirildi (Ro'yxat ilova qilinadi).

Korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarni minimallashtirish maqsadida ushbu funksiyalarga mas'ul bo'lgan lavozimlardagi jami 28 nafar xodimlarda korrupsiyaga nisbatan muvofiqdarsiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida maxsus o'qitish bo'yicha dastur qabul qilindi.

Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslar va xalqaro standartlar hamda korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha huquqbuzarliklarning ma'muriy va jinoiy javobgarligi kabi mavzular nazarda tutilgan bo'lib, korrupsiyaviy xavf-xatari "o'rta" darajadagi funksiyalarga mas'ul bo'lgan xodimlarning jami 14 soatlik o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda maxsus o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalarining Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish hamda Buxgalteriya tuzilmalarining 77 nafar xodimlari ham 14 soatlik maxsus o'quv dasturida ishtiroki ta'minlandi hamda o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy test sinovlaridan o'tkazildi.

Korrupsion holatlarni oldini olish, xodimlarning bajarayotgan funksiyalaridan moddiy manfaatdorlik olishini ko'zlamasligi maqsadida vazirlikda xodimlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash bo'yicha har bir xodimning ish samaradorligiga qarab rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasi "o'rta" deb baholangan funksiyalarni minimallashtirish bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tasdiqlangan dastur yuzasidan korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan tuzilmalar tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshirildi.

1-band bo'yicha:

Vazirlikka tegishli bino va inshootlardan unumli foydalanish, hududni ozoda saqlash, obodonlashtirish, ta'mirlash, kapital qurilish, kommunal xizmat ko'rsatish

va mol-mulklarni ishlatilishi yuzasidan Ishlar boshqarmasi tomonidan ish-reja va unga muvofiq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilgan.

Vazirlikka tegishli bino va inshootlar, kommunal xizmatlar bo'yicha sarf xarajatlari tizimli ravishda o'rganiladi hamda kommunal xizmatlar bo'yicha shartnomalar tuzilishidan oldin vazirlikning 2023-yil 10 oktabrdagi 198-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan komissiya a'zolariga asoslantirilgan hisob kitoblarni ilova qilgan xolda taqdim qilinadi. Mazkur sarf xarajatlar tegishliligi bo'yicha komissiya a'zolarining xulosasi olingandan so'ng shartnoma tuziladi.

Shuningdek, vazirlikda energiya resurslaridan samarali foydalanish maqsadida vazirlikning 2024-yil 29-avgustdagi 23-157-sonli "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida energiya resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i qabul qilingan, unga asosan energiya samaradorlik va energiya tejamkorlik bo'yicha vazifalar belgilab olingan hamda uning nazoratini olib borish vazirning birinchi o'rinbosari I.Norqulovga yuklatilgan.

Shu bilan birga Vazirlikning 2024-yil 13 sentabrdagi 209-Sht-son buyrug'iga asosan Sultanov Davranbek Atabekovich energiya menejeri lavozimiga tayinlangan. Mazkur lavozimning vazifalari vazirlikda energiya tejamkorligini nazorat qilish hamda energiya sarf xarajatlarini minimallashtirish bo'yicha chora tadbirlarini ishlab chiqarishdan iborat.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlarga muvofiq, har chorakda vazirlikning mol-mulkidan qanday foydalanish, ta'mirlash va qurilish hamda obodonlashtirish va kommunal xizmatlarning moliyaviy va iqtisodiy samaradorligini baholash bo'yicha batafsil ma'lumotlar jamlanib, vazirlik rahbariyatiga axborot kiritib borish tizimi yo'lga qo'yilgan.

2-band bo'yicha:

Vazirlikda xodimlar soni va bajarayotgan funksiya va vazifasidan kelib chiqib, kanselyariya mollarining sarflanishi bo'yicha aniq me'yorlar o'rnatilgan bo'lib, har bir departament va mustaqil boshqarma va bo'limlar kerakli kanselyariya mollari uchun talabnoma yozib tasdiqlangan holda Ishlar boshqarmasiga taqdim qiladi, yig'ilgan talabnomalarga asosan kanselyariya mollari sotib olinadi, ortiqcha sarf-xarajatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Korrupsiyani oldini olishning asosiy choralardan bo'lgan ochiqlik, shaffoflik hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida vazirlik tomonidan amalga oshirilgan shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlar har chorakda vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirib borilmoqda.

3-band bo'yicha:

Vazirlik balansidagi avtotransport vositalarining ro'yxati va mazkur avtotransport vositalarini ta'mirlash bilan bog'liq sarf xarajatlar to'g'risidagi nuqson dalolatnomalari hamda shartnomalar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirilib borilmoqda.

Shuningdek, avtotransport vositalarini ta'mirlash ishlarini me'yorlarini tahlil qilishda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish borasida vazirlikda avtoparkni boshqarish tizimi va har bir avtomashina uchun elektron pasport va hisobot tizimi joriy etildi.

Avtotransport vositalarini ta'mirlash ishlarining narx-navosini ochiq tarzda belgilash hamda ulardan foydalanish bo'yicha muntazam ravishda ichki audit nazorati yo'lga qo'yildi.

Havola: (<https://www.imv.uz/opendata/category/pf-6247-1-ilova-boyicha-malumotlar?page=1>)

4-band bo'yicha:

Ichki audit xizmati tomonidan 2024-yil uchun tasdiqlangan ish rejasi va rejadan tashqari topshiriqlar bo'yicha audit tadbirlari o'tkazgan.

Jumladan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimidagi 62 ta budjet tashkilotlarida davlat xaridlarini qonunchilik talablariga rioya etilishi hamda xarid komissiyalari faoliyati bo'yicha 11 marotaba audit tadbirlari o'tkazilgan.

Bundan tashqari tizim tashkilotlari tomonidan amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida faoliyat yuritayotganligi bo'yicha 2 marotaba masofaviy audit tadbirlari hamda 3 ta obyektlarda fuqarolar tomonidan tanlangan yo'nalishlar bo'yicha audit tadbirlari o'tkazilgan.

Ichki audit obyektlarining o'rganishi jarayonida o'tkazilgan ichki audit tadbirlari davomida barcha shartnomalar UzASBO, UzASBO-2 dasturiy majmuasi orqali ro'yxatdan o'tkazish hamda "Davlat xaridlari elektron tizimi" orqali shartnomalar tuzish tizimi yo'lga qo'yilganligi bo'yicha "DMBAT" AT va davlat xaridlari maxsus axborot portalidan olingan ma'lumot asosida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar talablarga mosligi yuzasidan doimiy monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan.

O'tkazilgan audit tadbirlari natijasi bo'yicha vazirlik rahbariyatiga tegishli tartibda axborot kiritib borish amaliyoti yo'lga qo'yilgan hamda audit tadbiri yakuni bilan rasmiylashtirilgan hisobotlar va to'plangan materiallar belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga huquqiy baho berish uchun yuboriladi.

5-band bo'yicha:

Xo'jalik shartnomalarining bajarilganligi yoki tegishli darajada bajarilmaganligi yuzasidan ichki audit tadbirlari jarayonida "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun va sohaga oid me'yoriy hujjatlarga rioya etilishi yuzasidan 184 ta holat o'rganilib tahlil qilindi.

O'rganish jarayonida har bir shartnomaning shartlari va talablari, shartnomalarda belgilangan vazifalar va xizmatlarning to'liq bajarilishi yuzasidan o'rganish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, haqiqiy bajarilgan ishlar hajmi va sifati shartnomada belgilangan talablarga mosligini aniqlash hamda shartnomalar UzASBO, UzASBO-2 dasturiy

majmuasi orqali ro'yxatdan o'tkazilganligi bo'yicha doimiy monitoring tizimi yo'lga qo'yilgan.

6-band bo'yicha:

Vazirlikda vakant lavozimlarga tanlov e'lon qilish va o'tkazish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida vazirlikning 2023-yil 12-iyuldagi 137-sonli buyrug'i bilan "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimiga ishga qabul qilish tartibi to'g'risida nizom" hamda "Iqtisodiyot va moliya vazirligining tanlov komissiyasi tarkibi" tasdiqlangan bo'lib, nomzodlarni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining «vacancy.argos.uz» platformasi orqali ishga qabul qilish mexanizmi yo'lga qo'yilgan.

Joriy yil davomida mazkur platforma orqali 81 ta vakansiyalar e'longa berilgan bo'lib, (ma'lumot uchun ushbu vakansiyalar bo'yicha 4593 nafar nomzodlar ariza topshirgan) shundan, 58 ta vakansiya bo'yicha 58 nafar nomzodlar tanlov komissiyasi tomonidan munosib deb e'tirof etilib ishga qabul qilingan. Qolgan vakansiyalar bo'yicha esa nomzodlar belgilangan malaka talablariga mos kelmagan va test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tmagan.

Vazirlikka ishga qabul qilish jarayoni ochiq, shaffof va meritokratiya tamoyillari asosida amalga oshirilmoqda.

7-band bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, vazirlikning 2023-yil 10 oktabrdagi 198-sonli "Iqtisodiyot va moliya vazirligida davlat xaridlari jarayonini tashkil etish to'g'risida"gi buyrug'iga asosan, 2024-yil davomida vazirlikda xizmat yoki tovarlar yetkazib beruvchilarni aniqlash talablari bo'yicha qator vazifalar amalga oshirilgan.

Jumladan, vazirlikda xizmat yoki tovarlar yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan barcha shartnomalar davlat xaridlari qonunchiligi talablari asosida amalga oshirilgan bo'lib, vazirlikning 2023-yil 10 oktabrdagi 198-sonli buyrug'ining 3-ilovasiga asosan, "Iqtisodiyot va moliya vazirligida eng yaxshi takliflarni tanlash, tender, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalarni rasmiylashtirish va yuritish ma'muriy reglamenti"ga muvofiq, davlat xaridlarini amalga oshirish bo'yicha tuzilayotgan yuridik majburiyat va shartnomalarni Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limining mas'ul xodimlari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga mosligi baholanib, tegishli xulosalar berish tizimi yo'lga qo'yilgan.

Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirilgan.

Havola: (<https://www.imv.uz/opendata/category/pf-6247-1-ilova-boyicha-malumotlar?page=1>)

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha ishlar doirasida vazirlik markaziy apparati va uning hududiy boshqarmalari xodimlaridan jami **3 794 ta** yillik manfaatlar to'qnashuvi deklaratsiyalari olindi.

Hisobot davrida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarini tashkilot shartnomalariga kiritish

Korrupsiyaga qarshi qoidalar vazirlikning barcha xo'jalik shartnomalariga (100 %) kiritilishi ta'minlangan.

Kontragentlarni tekshirish

Davlat xaridlari jarayonlarida inson omili ishtirokini kamaytirish maqsadida tanlash va tender savdolari majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilmoqda.

Hisobot davrida insofsiz ijrochi bilan shartnoma tuzish, xodimlarning manfaatlar to'qnashuvi va shaxsiy manfaatdorligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy xatarlarini kamaytirish, xarid jarayoni ishtirokchisining shartnomada belgilangan tovarlarni yetkazib berish yoki xizmat ko'rsatish, ishlarni bajarish imkoniyatini baholash, kontragent bilan shartnoma tuzish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadida, tizimda xarid qilish tartib-taomillari, jumladan to'g'ridan to'g'ri shartnoma tuzishda ishtirokchilarni majburiy tekshirishning asosiy talablari, tartibi va usullari doirasida 366 ta shartnoma monitoringi amalga oshirildi.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Vazirlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-son buyruq, 11.07.2023-yil) ishlab chiqilgan bo'lib, ularga korrupsiya qarshi kurashish siyosati va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib tanishtirilmoqda va har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha majburiyatlarni qayd etib borilmoqda.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Ta'lim

Jami o'qitilgan xodimlar soni **1 824 nafar**ni tashkil etadi, shundan Vazirlik markaziy apparati - **142**. Qolgan **1 682 nafar** xodimlar vazirlikning hududiy bosh boshqarmalari xodimlari Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari va budget tashkilotlari moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazida malaka oshirish kurslarida tahsil olgan. O'quv rejasiga maxsus modul (bo'lim) kiritilgan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashish komplayens nazorati (2 soat), davlat xizmatining tavsifi (2 soat) va odob-axloq qoidalarini bo'yicha (2 soat) mavzular asosida xodimlar o'qitilib kelinmoqda. O'quv markazida 2024-yilda davomida jami **1 682 nafar** vazirlik tizimi mutaxassislari malakasini oshirdi.

Bundan tashqari, xodimlarning mehnat faoliyatini olib borishi, xizmat safarlari va chet elga chiqish jarayonlarida jami **249 nafar** xodimlar bilan huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan preventiv profilaktik chora-tadbirlar (suhbatlar, instruktaaj) o'tkazildi.

Shuningdek, joriy yilning avgust oyida Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari va budjet tashkilotlari moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash o'quv markazi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda Hisob palatasi bilan hamkorlikda jami **712 ta** davlat organlari, tashkilot va idoralar hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarning xodimlari uchun "Davlat xaridlari va boshqa budjet moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish" mavzusida onlayn o'quv-trening tashkil etildi.

Bundan tashqari, vazirlikning markaziy apparati, hududiy bosh boshqarma va tuman/shahar iqtisodiyot va moliya bo'limlarining **3 695 nafar** boshqaruv xodimi test.adliya.uz sayti orqali manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha onlayn test sinovlaridan o'tkazildi. Test sinovlari natijalari 30 ballik tizimda o'rtacha 27 ballni tashkil etdi.

Shu bilan birga, joriy yil 30-oktabrda 3565-sonli raqam bilan Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi va Bosh prokuraturaning qarori bilan tasdiqlangan "Korruptsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi" elektron platformasida o'qitishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlariga Huquqni muhofaza qilish akademiyasining edu.proacademy.uz veb-saytida alohida o'quv modulida "Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish va oldini olish" (10 soatlik) mavzusida o'qish tashkil etildi.

Tadbirlar

Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi mutaxassislari tomonidan bugungi kunga qadar, viloyat Iqtisodiyot va moliya vazirligi viloyat boshqarma va tuman (shahar) bo'limlari xodimlari ishtirokida "Korruptsiya – jamiyat kushandasi" mavzusida 483 dan ortiq o'quv seminarlari tashkil etildi. Jumladan:

2024-yil 25-iyul kuni Iqtisodiyot va moliya vazirligida O'zbekiston Respublikasi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni yuzasidan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Tadbirda vazirlik tizimi xodimlariga ushbu Qonunning mazmun-mohiyati, ya'ni "manfaatlar to'qnashuvi" tushunchasi xususida hamda manfaatlar to'qnashuvi kimlar o'rtasida va qachon vujudga kelishi yuzasidan batafsil tushuntirishlar berildi, shuningdek, vazirlik tizimida Qonun ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, Vazirlik huzuridagi O'quv markazida 2024-yil 9-oktabrda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Yuridik departament va Korruptsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan vazirlikning hududiy iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari, tuman-shahar iqtisodiyot va moliya bo'limlari, vazirlik huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasi hududiy bo'linmalari hamda vazirlik huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hududiy boshqarmalari, tuman/shahar bo'limlaridan kelgan tinglovchilar ishtirokida "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning mazmun-mohiyati, manfaatlar to'qnashuvining vujudga kelishi va uning oldini olish mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, joriy yil 5-dekabrda vazirlikda “9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash” kuniga bag‘ishlangan Aksilkorruptsiya oyligi doirasida “Korrupsiyaga qarshi kurashish barchamizning burchimiz” mavzusida vazirlik markaziy apparati tarkibidagi barcha departament va mustaqil tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, vazirlikning Odob-axloq komissiyasi a‘zolari hamda vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning sohaga mas’ul xodimlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida, shuningdek, hududiy bo‘linmalarining rahbarlari va xodimlari onlayn tarzda (ZOOM orqali) ishtirok etdi.

Tadbirda vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, “Budjet jarayonini raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan choralar”, “Oshkoralik – infratuzilma loyihalarini shakllantirish va amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyili” hamda “Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining elektron platformasini joriy etish orqali “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun prinsiplariga rioya qilishni ta‘minlash” mavzulari muhokama qilindi va kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Xodimlarda korrupsiya holatlarining har qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini shakllantirish va unga qarshi ayovsiz kurashish xodimlarining eng ustuvor vazifasi ekanligini yetkazish bo‘yicha profilaktik tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

VI. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar

Vazirlikning imv.uz rasmiy saytiga korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanallari (Ishonch telefoni – 71 203 31 71, 71 203-50-50 (01117); elektron pochta – info@imv.uz; telegram bot – [@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot)) joylashtirilgan.

Telegram messenjerida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan alohida aloqa kanali – [@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot) telegram boti ishga tushirilgan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifa, ishonch telefoni, elektron manzil) orqali, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslardan tushgan barcha murojaatlar qonunchilikda belgilangan tartibda o‘rganib chiqilgan.

2024-yilda korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

VII. Monitoring va nazorat

Vazirlik markaziy apparati hamda vazirlikning hududiy bo‘linmalaridan har oyda korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo‘yicha

amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yuzasidan olingan ma'lumotlar asosida doimiy monitoring ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-son qarori talablariga muvofiq, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar, tahlillar, erishilgan natijalar to'g'risidagi axborotlar "E-anticor.uz" platformasiga o'z vaqtida, to'liq va sifatli tarzda kiritilib borilmoqda.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan 2024-yilda 1 ta xizmat tekshiruvi va 3 ta o'rganish o'tkazilib, xizmat tekshiruvi va o'rganishlar yakuni bilan tuzilgan dalolatnoma (ma'lumotnoma) va unga ilova qilingan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi.

Bunda tashqari hududiy bosh boshqarmalari tomonidan 2024-yilda jami 12 ta xizmat tekshiruvlari va 4 ta o'rganishlar o'tkazilgan.

Jumladan, Jizzax viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvi 3 ta o'rganish, Navoiy viloyatida 1 ta xizmat tekshiruvi, Qashqadaryo viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvi 1 ta o'rganish, Samarqand viloyatida 4 ta xizmat tekshiruvi hamda Toshkent viloyatida 2 ta xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan.

IX. Xulosalar

Vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining umumiy holati, mazkur soha bo'yicha asosiy yo'nalishlar yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo'limi tomonidan sohaga taalluqli barcha jarayonlar bevosita nazoratga olingan. Tarkibiy tuzilmalarning mazkur sohadagi faoliyati yuzasidan muntazam ravishda yo'riqnomalar, maslahatlar va amaliy yordamlar berib kelinmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish" hamda "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi Qonunlar, ushbu masalaga oid Davlat dasturlari va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda bajarilmoqda.

2024-yilda belgilab olingan reja topshiriqlarni bajarish maqsadida asosiy e'tibor korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining **asosiy yo'nalishlariga** qaratiladi, xususan

– vazirlik tizimidagi barcha darajadagi xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta‘minlash;


– ochiq ma‘lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo‘lgan ahamiyatga molik ma‘lumotlarni o‘z vaqtida belgilangan ro‘yxati asosida joylashtirilishini nazorat qilish;

– amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ishlari doirasida barcha ichki idoraviy hujjatlarni amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni qonuniy ko‘rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘rish.

Yuqorida qayd etilgan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ishlarni to‘laqonli va sifatli bajarish keyingi hisobot davrida vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining baholash ko‘rsatkichlarni yanada yaxshilanishiga omil bo‘ladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish va
komplayens nazorati bo‘limi boshlig‘i**

 **F. Berdiyev**



